



**TIL VA MADANIYAT MUSHTARAKLIGI: TARJIMA JARAYONIDAGI
DOLZARB MASALALAR**

Mirzakarimova Saodat Abdunabiyevna

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti Lingvistika va Ingliz tili oqitish metodikasi kafedrası

magistratura mutaxassisligi 2- bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik hamda ularning tarjima jarayonidagi o'rni yoritilgan. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniy merosi, qadriyatları va dunyoqarashining ifodachisidir. Shu bois tarjima jarayonida so'zning leksik ma'nosi bilan birga, uning madaniy konteksti, milliy urf-odatlar va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqligini ham to'g'ri anglash muhim ahamiyatga ega. Maqolada tarjimon oldida turgan asosiy muammolar — madaniy ekvivalent topish, milliy koloritni saqlash, ma'no ko'chishlarini to'g'ri ifodalash va konnotativ mazmuni yo'qotmaslik kabi dolzarb masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Til, madaniyat, tarjima, madaniy tafovut, ekvivalentlik, milliy kolorit, kontekst, lingvomadaniyat.

**LANGUAGE AND CULTURE INTERPRETATION: CURRENT ISSUES IN
THE TRANSLATION PROCESS**

ANNOTATION: This article discusses the inextricable link between language and culture and their role in the translation process. Language is not only a means of communication, but also a reflection of the cultural heritage, values, and worldview of the people. Therefore, in the translation process, it is important to correctly understand, along with the lexical meaning of the word, its connection with its cultural context, national traditions, and social values. The article analyzes the main problems facing the translator, such as finding a cultural equivalent, preserving national flavor, correctly expressing meaning shifts, and not losing connotative content.

Key words: Language, culture, translation, cultural difference, equivalence, national color, context, linguistic culture.

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
ПЕРЕВОДЧЕСКОГО ПРОЦЕССА**

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается неразрывная связь языка и культуры и их роль в процессе перевода. Язык — это не только средство общения, но и отражение культурного наследия, ценностей и мировоззрения народа. Поэтому



В процессе перевода важно правильно понимать, наряду с лексическим значением слова, его связь с культурным контекстом, национальными традициями и общественными ценностями. В статье анализируются основные проблемы, стоящие перед переводчиком, такие как поиск культурного эквивалента, сохранение национального колорита, корректное выражение смысловых сдвигов и сохранение коннотативного содержания.

Ключевые слова: Язык, культура, перевод, культурные различия, эквивалентность, национальный колорит, контекст, лингвокультура.

KIRISH

Til va madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan, bir-birini to‘ldiruvchi ikki ijtimoiy hodisadir. Til orqali millatning dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlarini, o‘tmishi va madaniy tajribasi ifodalanadi. Shuning uchun har bir tarjima jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy jarayon ham hisoblanadi. Tarjima asnosida so‘z yoki iboraning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nosini emas, balki uning madaniy konnotatsiyasini, ya‘ni u tildan tashqari ma‘nolarni ham to‘g‘ri yetkazish muhimdir.

Til va madaniyat mushtarakligini eng aniq ko‘rsatuvchi misollardan biri — bolalar o‘yinlari va ularning tildagi aks sadosidir. Chunki har bir xalqning o‘yinlari uning madaniy an‘analarini, xalq og‘zaki ijodini va milliy ruhini o‘zida mujassam etadi. Shu bois, ularni tarjima qilish jarayoni lingvomadaniy jihatdan nihoyatda nozik va mas‘uliyatli jarayondir.

Til va madaniyatning o‘zaro aloqasi g‘oyasi tilshunoslik va til falsafasi tarixida alohida o‘rin egallaydi. **Vilgelm fon Gumboldt** tilning universalligini tan olgan holda, har bir tilda o‘ziga xos dunyoqarash mujassamligini ta‘kidlagan. Uning fikricha, har bir xalqning tili o‘sha millatning “ruhi”ni ifodalaydi, tildagi farqlar esa xalqlarning aqliy va madaniy tafovutlarini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

N. I. Tolstoy tilni madaniyatning tarkibiy qismi yoki uni ifodalovchi qurol sifatida talqin etgan. Unga ko‘ra, til bir vaqtning o‘zida madaniyatdan mustaqil mavjud bo‘lishi ham, madaniyat bilan teng hodisa sifatida namoyon bo‘lishi ham mumkin. **E. G. Ter-Minasova** esa tilni jamiyatni birlashtiruvchi, millatni shakllantiruvchi kuchli ijtimoiy vosita sifatida tavsiflagan.

V. A. Maslova til va madaniyatni birgalikda o‘rganadigan yangi ilmiy yo‘nalish — **lingvomadaniyatshunoslikni** “tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida shakllangan fan sohasi” deb ta‘riflaydi. Uning fikricha, bu yo‘nalish madaniyatshunoslik, etnolingvistika va madaniy antropologiya natijalarini o‘zida mujassam etgan kompleks



sohadir. **V. N. Teliya** lingvomadaniyatshunoslikni etnolingvistikaning bir qismi deb hisoblab, uni “til va madaniyatning sinxron o‘zaro ta’sirini o‘rganuvchi fan” deb belgilaydi. **V. V. Krasnix** esa bu yo‘nalishni “til va nutqda madaniyatning ifodalanishi va fiksatsiyasini o‘rganuvchi, milliy dunyoqarash va lingvistik ongni tahlil qiluvchi fan” sifatida talqin etgan.

Zamonaviy tilshunoslikda **lingvomadaniyatshunoslik** fani nazariy va metodologik jihatdan eng to‘liq tarzda **V.V. Vorobyov**ning “Lingvokulturologiya” nomli asarida yoritilgan. Muallif bu yo‘nalishni bir necha asosiy jihatlar orqali tavsiflaydi [Vorobyev, 2008: 32]:

✓ Lingvomadaniyatshunoslik – bu **integrativ fan** bo‘lib, u tilshunoslik va madaniyatshunoslik kabi sohalar o‘rtasidagi bog‘lovchi yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi.

✓ Uning **asosiy obyekti** – til va madaniyatning o‘zaro ta’siri, ular faoliyat yuritayotgan jarayondagi o‘zaro aloqalar tizimini o‘rganishdir.

✓ **Predmeti** esa – jamiyatdagi til vositasida qayta ishlab chiqariladigan, madaniy qadriyatlarga asoslangan milliy shakllar, ya’ni “dunyoning lisoniy manzarasi”ni tashkil etuvchi barcha omillarni o‘z ichiga oladi.

✓ Lingvomadaniyatshunoslik yangi tafakkur asosida **madaniy qadriyatlarning zamonaviy tizimini** tahlil etishga, ularni xolisona va to‘liq talqin etishga yo‘naltiriladi.

✓ Bu fan xalq madaniyatini **til orqali to‘liq va tizimli tarzda yoritish**, ularning o‘zaro aloqasi va rivojlanishini ko‘rsatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Vorobyovning ta’kidlashicha, lingvomadaniyatshunoslik — bu **til va madaniyat chorrahasida shakllangan yangi filologik yo‘nalish** bo‘lib, u milliy-madaniy hamjamiyat vakillarining dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari va tajribalarini o‘rganadi. U tilni nafaqat kommunikativ vosita sifatida, balki xalqning **mentalitetini aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy hodisa** sifatida tahlil qiladi [Vorobyev, 1999: 77].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Til — har bir millatning ma’naviy boyligi, uning milliy qiyofasi va birlik ramzidir. Har bir xalq o‘zining madaniy merosi va milliy o‘ziga xosligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shu jihatdan, til ham o‘sha madaniyatning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Millatning madaniy yuksalishi, qadriyatlari va tarixiy xotirasini ifodalashda tilning o‘rni beqiyosdir. Til madaniyatning tarkibiy bo‘lagi bo‘lib, u muloqot jarayonida xalqning madaniy ruhi va milliy tafakkurini aks ettiradi.

Tilni madaniyatning bir vositasi sifatida o‘rganish, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa, psixologiya kabi ko‘plab fanlarning rivojlanishiga turtki bergan. Bu sohalarda olib



borilgan izlanishlar natijasida **lingvomadaniyatshunoslik, kommunikativ tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, sociolingvistika, interlingvistika, kompyuter lingvistikasi** kabi yangi yo‘nalishlar shakllandi. Ularning barchasi til va madaniyatning o‘zaro ta‘sirini turli nuqtai nazardan o‘rganishga xizmat qiladi.

Til va madaniyatni bir butun sifatida o‘rganish zaruriyati zamonaviy jamiyatlarda madaniy xilma-xillik kuchaygani sari yanada dolzarb bo‘lmoqda. Tilshunoslik va ta‘lim sohalarida til nafaqat aloqa vositasi, balki insonning madaniy o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi belgi sifatida qaraladi. Tildagi ifodaviy vositalarni, uslubiy va semantik boyliklarni to‘g‘ri qo‘llash — har bir insonning madaniy saviyasi va ona tiliga hurmatining ko‘rsatkichidir. [Jo‘rayev M. 2018].

Moddiy madaniyat yodgorliklarini asrash qanchalik muhim bo‘lsa, tilni asrash ham shunchalik muhim. Tilni vulgarizmlar, jargonizmlar va ortiqcha o‘zlashmalardan himoya qilish ma‘naviy merosni saqlashning bir shaklidir. Tilni o‘rganish jarayonida xalqning urf-odatlarini, mentalitetini va milliy qadriyatlarini bilan tanishish ham zarur bo‘ladi.

Til va madaniyat uyg‘unligining o‘zagi **nutq madaniyati** tushunchasi bilan bevosita bog‘liq. Tilshunoslikda “nutq madaniyati” va “til madaniyati” atamalarini ba‘zan bir-biriga yaqin ma‘noda ishlatilsa-da, ularning orasida farq mavjud. Til madaniyati, avvalo, **til tizimining me‘yorlanganlik darajasini** – adabiy tilning imkoniyatlari, boyligi va shakllanganlik darajasini bildiradi. Nutq madaniyati esa bu til birliklaridan **muloqot jarayonida to‘g‘ri, maqsadga muvofiq va estetik jihatdan chiroyli foydalanish san‘atini** anglatadi.

Boshqacha aytganda, **til madaniyati – tilning o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan me‘yoriylik**, nutq madaniyati esa **tilning amaliy qo‘llanishidagi madaniylikni** ifodalaydi. Ammo bu ikki tushuncha bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘la olmaydi, chunki **tilning madaniy darajasi nutqda o‘z ifodasini topadi**, nutq madaniyati esa til me‘yorlariga tayanadi.

Oliy ta‘lim tizimida “Nutq madaniyati” fani alohida o‘rin tutadi. Bu fan talabalarga nutqning nazariy asoslarini, so‘zlash va yozish madaniyatini, tilning me‘yoriy tizimini o‘rgatadi hamda ularni **professional muloqotda to‘g‘ri fikr bildirish** ko‘nikmalariga ega bo‘lishga o‘rgatadi. [Eshonqulov S. 2017].

Til madaniyati va nutq madaniyati **huquqshunoslik sohasida** ham alohida ahamiyatga ega. Huquqiy matnlarning aniqligi, qonunlarning to‘g‘ri talqini, sudda nutq yuritish madaniyati – bularning barchasi til madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Mustaqil O‘zbekiston sharoitida **fuqarolik jamiyatini rivojlantirish** va qonun



ustuvorligini ta'minlash jarayonida tilning to'g'ri va madaniyatli qo'llanishi muhim o'rin tutadi.

Til va madaniyat o'zaro mushtaraklikda namoyon bo'ladigan eng yaqqol misollardan biri — bolalar o'yinlari va ularning tildagi ifodasidir. Har bir xalqning o'yinlari uning turmush tarzi, urf-odatlarini, dunyoqarashi va tarbiyaviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Masalan, ingliz xalqining "Hide and Seek", "Ring a Ring o' Roses" kabi o'yinlari shaxs erkinligi va mustaqil fikrlashni targ'ib qilsa, o'zbek xalqining "Oq terakmi, ko'k terak", "Chittigul, chittigul, so'lim qiz" kabi o'yinlari jamoaviylik, hamjihatlik va o'zaro hurmat g'oyalarini ilgari suradi.

Bu o'yinlarning lingvistik xususiyatlari ham madaniyatning o'ziga xos ko'zgidir. Bolalar o'yinlarida ritmik she'rlar, takroriy so'z birikmalari, xalqona iboralar keng qo'llanadi. Ingliz tilidagi "Eeny, meeny, miny, moe" yoki o'zbekcha "Oq terakmi, ko'k terak" kabi sanash o'yinlari tilning musiqiylikni, tovushlar uyg'unligini hamda bolalar tafakkurining tabiiy rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Shu bois, bunday o'yinlarni tarjima qilishda nafaqat so'zlar, balki ularning ritmi, ohangi, madaniy ruhi ham muhim ahamiyatga ega.

Tarjima jarayonida madaniy ekvivalent tanlash muammosi eng dolzarb masalalardan biridir. Chunki ayrim o'yin nomlari yoki iboralar boshqa tilda bevosita muqobilga ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, "Oq terakmi, ko'k terak" o'yini ingliz tilida so'zma-so'z tarjima qilinsa, u o'zining milliy rang-barangligini yo'qotadi. Shuning uchun tarjimon bu o'yinga ingliz tilidagi "Duck, Duck, Goose" yoki "Red Rover" kabi o'yinlarni mazmunan yaqin ekvivalent sifatida tanlashi mumkin. Bu jarayon madaniy moslashtirish deb ataladi.

Shuningdek, tarjimada semantik va konnotativ farqlarni hisobga olish zarur. Har bir tildagi so'zlar o'z madaniy foniga ega. Masalan, inglizcha "child's play" iborasi "bolalar o'yini" degani bo'lsa ham, u ko'proq "o'son ish" ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida esa "bolalar o'yini" to'g'ridan-to'g'ri o'yin faoliyatini bildiradi. Demak, tarjimon nafaqat ma'noni, balki uning madaniy ta'sirini ham to'g'ri yetkazishi kerak.

Til va madaniyat mushtarakligi tarjima jarayonida eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Tarjima so'zlar o'girilishidan iborat oddiy jarayon emas, balki madaniyatlararo ko'prikdir. Ayniqsa, bolalar o'yinlari kabi xalqona materiallar bilan ishlaganda, tarjimon milliy ruh, ohang, ritm va madaniy kontekstni yo'qotmasligi kerak. Chunki bunday o'yinlar har bir xalqning madaniy xotirasi, milliy tarixi va bolalik tasavvurining bir qismidir.



Xulosa qilib aytganda, til va madaniyat bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq hodisalardir. Tarjima jarayonida ularning uyg'unligini saqlab qolish, madaniy tafovutlarni hisobga olish hamda lingvomadaniy moslikni ta'minlash tarjimonning asosiy vazifasidir. Ingliz va o'zbek bolalar o'yinlarining lingvistik va madaniy jihatdan tahlili, tarjima nazariyasi hamda amaliyoti uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. [Qodirova N. 2021]

XULOSA

Umuman olganda, tildagi madaniy birliklarni tarjima qilish jarayoni **lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik va pragmalingvistika** fanlarining kesishgan nuqtasida amalga oshadi. Natijada, til va madaniyat mushtarakligi tarjima nazariyasida asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib, yangi ilmiy izlanishlar va metodologik yondashuvlar uchun zamin yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, **til – ijtimoiy hodisa** bo'lib, u insonning boshqa odamlar bilan muloqoti orqali shakllanadi va yashaydi. Inson ona tilini bolalikdan egallaydi va u hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Hatto yillar o'tsa-da, inson o'z ona tilida so'zlashishni unutmaydi. Bu esa tilning inson ehtiyojlariga **moslashuvchanligi va tirik tizim** sifatidagi kuchini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vorobyev V.V. "Лингвокультурология в кругу других гуманитарных наук. "Русский язык за рубежом 3" (1999): – С. 77.
2. Maslova V.A. (2001). *Lingvokulturologiya*. Moskva: Akademiya.
3. Teliya V.N. (1996). *Frazeologiya va madaniyat: tilshunoslikdagi madaniy komponent*. Moskva: Nauka.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). *Davlat ta'lim standarti: Filologiya yo'nalishi bo'yicha*. Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
5. Jo'rayev M. (2018). *Til, madaniyat va tafakkur uyg'unligi*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
6. Eshonqulov S. (2017). *Lingvomadaniyatshunoslik va tarjima jarayonidagi madaniy omillar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Qodirova N. (2021). *Til va madaniyat aloqasi: tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan*. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.

